


## QISHLOQ, O`RMON VA BALIQ XO`JALIGI


2019 yilning yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi mahsulotlari (xizmatlarning) umumiy hajmi 12900,4 mlrd. so`mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 103,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda 12670,2 mlrd. so`mni, ovchilik va bu sohalarda ko`rsatilgan xizmatlar hajmida 92,4 mlrd. so`mni, o`rmonchilik xo`jaliklarida 108,1 mlrd. so`mni (105,2 foiz), baliqchilik xo`jaliklarida 29,7 mlrd. so`mni tashkil qildi.

### Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi mahsulotlari (xizmatlarning) ishlab chiqarish hajmi tumanlar kesimida




**Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlarning) ishlab chiqarishning hajmi tumanlar kesimida taqsimlanishi**

(viloyat hajmiga nisbatan foiz hisobida)



**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmi xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**


(foiz hisobida)



Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 79,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 18,0 foizi fermer xo‘jaliklariga va 2,5 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelmoqda.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmi xo'jalik toifalari bo'yicha tumanlar kesimida taqsimlanishi


(foiz hisobida)



**Dehqonchilik.** 2019 yilning yanvar-sentyabrda dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7421,2 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 58,6 foizni tashkil etdi.

## Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi

(foiz hisobida)



Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar qishloq xo‘jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 70,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 26,8 foizi fermer xo‘jaliklariga va 3,2 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

### 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari


	Barcha turdagi xo‘jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo‘jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari		qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o‘shish sur‘ati, %da	ming tonna	o‘shish sur‘ati, %da	ming tonna	o‘shish sur‘ati, %da	ming tonna	o‘shish sur‘ati, %da
Don ekinlari	576,9	113,1	440,1	116,1	97,9	86,9	38,9	2,1 m.
Kartoshka	282,8	101,2	5,7	98,2	276,6	101,2	0,5	105,7
Sabzavotlar	811,4	100,1	16,9	68,1	787,6	100,8	6,9	156,1
Poliz	191,9	101,9	15,3	85,1	175,8	103,8	0,8	85,4
Meva va rezavorlar	114,7	108,3	23,8	93,8	89,4	112,4	1,5	166,1
Uzum	83,3	107,8	36,1	117,6	46,3	100,9	0,9	138,2

**Hosil yig‘imi.** 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 576947 tonna don va dukkakli don ekinlari (113,1 foiz), 282843 tonna kartoshka (101,2 foiz), 811390 tonna sabzavot (100,1 foiz), 191935 tonna poliz (101,9 foiz), 114663 tonna meva va rezavorlar (108,3 foiz) va 83917 tonna uzum (107,8 foiz) etishtirildi.




Barcha hududlarda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, don ekinlari ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 93,2 foizni, kartoshka 99,8 foizni, 99,1 foizni sabzavot, 99,6 foizni poliz, 98,7 foizni mevalar va uzum ishlab chiqarishda 98,9 foizni tashkil etdi.

**Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi**  
(foiz hisobida)




**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida tumanlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish (ming tonna)**




■ Don ekinlari ■ Kartoshka ■ Sabzavotlar





**CHorvachilik.** 2019 yilning yanvar-sentyabrida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5248,9 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 41,4 foizni tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-sentyabrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 127,3 ming tonna go‘sht (2018 yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 3,4 foizga ko‘p), 554,8 ming tonna sut (1,2 foizga ko‘p), 386,8 mln. dona tuxum (31,5 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.



**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari**


	Barcha turdagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati, %da	ming tonna	o'sish sur'ati, %da	ming tonna	o'sish sur'ati, %da	ming tonna	o'sish sur'ati, %da
Go'sht, tirik vaznda	127,3	103,4	6,5	147,2	120,1	102,1	0,7	68,9
Sog'ib olingan sut	554,8	101,2	13,0	140,0	539,3	100,5	2,5	112,7
Tuxum, mln.dona	386,8	131,5	129,2	4,0 m.	164,2	97,2	93,4	100,9
Jun, tonna	1664	101,1	238	95,2	1373	102,1	53	103,9
Qorako'l teri, dona	9583	90,8	813	33,4	4587	104,4	4183	112,2
Pilla, tonna	1627	107,3	743,3	68,6	-	-	883,7	2,0 m.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi**  
(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida)



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,5 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,5 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 75,9 foizni tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi



2019 yil 1 oktyabr holatiga 2018 yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 103,0 foizga (jami 906,2 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,9 foizga (330,4 ming bosh), qo‘y va echkilar 105,6 foizga (2280,5 ming bosh), parrandalar 120,0 foizga (4942,4 ming bosh) ko‘paydi.





**2019 yil 1 oktyabr holatiga ho‘jalik toifalari bo‘yicha  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Barcha turdagi xo‘jaliklarda		shu jumladan					
			fermer xo‘jaliklarida		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida		qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda	
	ming bosh	o‘shish sur‘ati, %da	ming bosh	o‘shish sur‘ati, %da	ming bosh	o‘shish sur‘ati, %da	ming bosh	o‘shish sur‘ati, %da
Qoramollar	906,2	103,0	37,0	82,8	859,8	104,3	9,4	90,4
shu jumladan, sigirlar	330,4	102,9	13,2	90,4	315,1	103,5	2,1	110,5
Qo‘y va echkilar	2280,5	105,6	362,4	129,4	1878,0	103,0	40,1	72,5
Parrandalar	4942,4	120,0	1360,1	192,8	2471,9	103,2	1110,4	109,1



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 94,9 foizni, fermer xo‘jaliklarida esa 4,1 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 95,4 va 4,0 foizni, qo‘y va echkilar 82,3 va 15,9 foizni, otlar 77,7 va 20,6 foizni, parrandalar 50,0 va 27,5 foizni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda chorva mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)**



**Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistika bo‘limi**

Aloqa telefoni: (71) 230-85-77

(76) 223-06-98